

MASHINA VA MEXANIZMLARDA YONG'INGA QARSHI TALABLAR VA FAVQULODDA VAZIYATLARDA XAVFSIZLIK CHORALAR

Normayev Qobilbek Husanovich

*NDKTU Konchilik fakulteti "Hayot
faoliyati xavfsizligi" kafedrası dotsent v.b.*

Ashirova Mehribon Rustam qizi

*NDKTU Konchilik fakulteti 47A-25
MMTX guruh talabasi*

Kirish. Hozirgi davrda mashina va mexanizmlar ishlab chiqarish, transport va qishloq xo'jaligida keng qo'llaniladi. Shu bilan birga, ularning ishlashi davomida turli yong'in xavflari yuzaga kelishi mumkin. Yong'in ko'pincha kutilmaganda sodir bo'lib, qisqa vaqt ichida katta talafot keltirishi mumkin. Shu sababli, texnikalarda yong'inga qarshi talablarni bilish va favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish har bir foydalanuvchining muhim vazifasi hisoblanadi.

Asosiy qism. Yong'inga qarshi xavfsizlik – texnik tizimlarda yong'in chiqishining oldini olish, yong'in sodir bo'lganda esa uni bartaraf etish uchun chora-tadbirlar majmui hisoblanadi. Bu tushuncha favqulodda vaziyatlar vazirligi (FVV) faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, aholining xavfsizligini ta'minlashning muhim qismi sifatida qaraladi. Mashina va mexanizmlarda yong'inga qarshi xavfsizlik faqat texnik tadbirlar emas, balki tashkiliy va profilaktik choralarni ham o'z ichiga oladi. Mashina va mexanizmlarda yong'in xavfini keltirib chiqaruvchi asosiy omillar ko'pincha texnik nosozliklar va inson omili bilan bog'liq bo'ladi. Ularga quyidagilar kiradi: Elektr nosozliklari: qisqa tutashuv, izolyatsiyaning shikastlanishi, ortiqcha yuklama. Yonilg'i tizimidagi muammolar: yoqilg'ining sizib chiqishi, gaz ballonidagi nosozliklar, moylarning to'kilishi. Haroratning ortishi: dvigatel yoki tormoz qismlarining qizib ketishi, moylanmagan detallar ishqalanishi. Texnik xizmatning sustligi: nosoz qismlarni





vaqtida almashtirmaslik, profilaktik tekshiruvlarni o'tkazmaslik. Inson omili: malakasizlik, xavfsizlik qoidalariga rioya qilmaslik, salon ichida chekish. Bunday omillar nafaqat yong'in, balki portlash, zaharli gaz chiqishi kabi boshqa favqulodda vaziyatlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Yong'inga qarshi talablar va favqulodda vaziyatlarda amaliy choralar amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar mashina va mexanizmlarda yong'in xavfsizligini ta'minlashni majburiy qiladi. Mashina va mexanizmlarda o't o'chirgichlarning mavjudligi shart bo'lib, ularning turi mashina va mexanizm yoki transportning vazifasiga qarab belgilanadi: Yengil avtomobillarda – 2 litrli qo'l o't o'chirgich; Yuk mashinalarida – 5 litrli kukunli yoki karbonat angidridli o'chirgich; Yonilg'i tashuvchi transportlarda – ikkita 5 litrli kukunli o'chirgich. Favqulodda vaziyatlarda bajarilishi zarur bo'lgan choralar: vahimaga tushmaslik va aholini xavfsiz joyga olib chiqish; avtomobilni odamlar va binolardan uzoqroqda to'xtatish; dvigatelni o'chirib, FVVga (101) tezkor xabar berish; yong'in o'chog'ini baholab, imkon bo'lsa o't o'chirgich bilan bartaraf etish; yonilg'i baki yoki gaz ballonida yong'in bo'lsa, undan uzoqlashish va qutqaruvchilarni kutish. Shuningdek, oddiy vositalardan (tuproq, suv, kigiz, qalin mato) foydalanish ham samarali bo'lishi mumkin.

Xulosa: Mashina va mexanizmlarda yong'inga qarshi xavfsizlikni ta'minlash favqulodda vaziyatlarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Elektr va yonilg'i tizimidagi nosozliklarni o'z vaqtida bartaraf etish, texnik xizmatni muntazam o'tkazish, o't o'chirgichlardan foydalanish qoidalarini bilish yong'in xavfini kamaytiradi. Eng asosiysi, favqulodda vaziyatlarda xotirjamlikni saqlash va FVV ko'rsatmalariga amal qilish inson hayoti va mol-mulkni himoya qilishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar

- 1) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori — “Yong'in xavfsizligi qoidalari”, Toshkent, 2021.



- 2) O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi. "Transport vositalarida yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha qo'llanma", Toshkent, 2020.
- 3) "Mehnatni muhofaza qilish va yong'in xavfsizligi" fanidan o'quv qo'llanma. — Toshkent: Oliy ta'lim nashriyoti, 2019.
- 4) Normurodov, B. Mashina va mexanizmlarda yong'in xavfsizligi. — Toshkent: O'zbekiston texnika universiteti nashriyoti, 2014

